**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektori

A.U.Sattarov

27-avgust 2024-yil

*Ro'yxatga olindi:*

*2024-yil 27-avgust*

**O'ZBEK TILI**

**O'QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230000 – Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (rus tili) |

**Termiz- 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/mavzu kodi<br>O‘ZTILB241</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>3</td><td colspan="2">Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/mavzu turi<br>Majburiy (4 ECTS)</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>o‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘zbek tili</td><td>60</td><td>60</td><td>120</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">1. Fanning mazmuni<br>Fanni o‘qitishdan maqsad – rus guruhlari talabalarining quyi ta’lim bosqichlarida egallagan nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, o‘z fikrini turli uslublar va nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda bog‘lanishli bayon eta olish, eshitilgan axborotni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish, o‘zbek tilining boy tarixi bilan tanishtirish, sohaga oid qaror va farmonlarning mohiyati bilan tanishtirish, og‘zaki va yozma nutq madaniyatini egallash, jahon va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rgatish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta tashabbus tarkibidagi talabalarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’at yo‘nalishlariga qiziqishini oshirish, tildan amaliy foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iborat.<br>Fanning vazifasi– talabalarni o‘zbek tilining: fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika va frazeologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksis, punktuatsiya bo‘limlari yuzasidan eng zarur qoidalar bilan tanishtirish; talabalarni olingan nazariy bilimlarni amalda erkin ko‘llay olish malakalari bilan qurollantirish; ta’lim jarayonida eng zamonaviy metodlarni ko‘llash asosida erkin sharoit yaratish va talabalarning til o‘rganishga qiziqishlarini oshirish; talabalarni o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari hayoti va faoliyatlari bilan tanishtirish; talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalari ustidan obyektiv nazorat olib borishdan iborat.</td></tr>
</table>

## II. Asosiy nazariy qism

### II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

### II. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

**1-Mavzu:** O‘zbek tilining tarixi va taraqqiyot bosqichlari
**2-Mavzu:** O‘zbek tilining dunyo tillari orasidagi o‘rni va mavqeyi
**3-Mavzu:** Turkiy tillar va o‘zbek tili
**4-Mavzu:** O‘zbek tilining nutq tovushlari
**5-Mavzu:** Grafika
**6-Mavzu :** O‘zbek tilining imlo qoidalari
**7-Mavzu:** Bosh harflar imlosi
**8-Mavzu:** O‘zbek tilida tinish belgilar
**9-Mavzu:** Orfoepiya
**10-Mavzu:** So‘z turkumlari
**11-Mavzu:** So‘z birikmasi va gap
**12-Mavzu:** O‘zbek tili leksikologiyasi
**13-Mavzu:** O‘zbek tili leksikografiyasi
**14-Mavzu:** O‘zbek tilida iboralar
**15-Mavzu:** O‘zbek tilida so‘z yasalishi
**16-Mavzu:** Rasmiy uslub va uning umumiy xususiyatlari. Asosiy hujjatlar
**17-Mavzu:** Dunyo globallashuv davrida
**18-Mavzu:** O‘zbekiston va jahon: iqtisod va siyosat
**19-Mavzu:** XXI asr – innovatsiyalar asri
**20-Mavzu**: Davrimizning global muammolari
**21-Mavzu:** Tabiat va inson
**22-Mavzu:** Inson va salomatlik
**23-Mavzu:** Huquqiy madaniyat
**24- Mavzu:** O‘zbekistonda oliy ta’lim
**25- Mavzu:** Ilm maskanimiz hayotidan
**26- Mavzu:** Bo‘lajak kasbim
**27- Mavzu:** Hayot mening tasavvurimda
**28- Mavzu:** Kasbim tarixi
**29- Mavzu:** Yetuk mutaxassis
**30- Mavzu:** Kasb bayrami

### III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar (ma’lumot-axborot, (taqdimot, multimedia texnologiyalari) va ta’limning zamonaviy texnologiyalari (rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, fanni to‘liq o‘rganishga yo‘naltirilgan texnologiyalar), interfaol metod (“T-chizma”, “Baliq skeleti”, “Tushunchalar tahlili”, “Aqliy hujum”, “Klaster” “Zigzag”, “Birgalikda o‘qiymiz”, SWOT tahlili, “FSMU” va boshqa)lar qo‘llaniladi. Bundan tashqari darslik, o‘quv

| | |
|---|---|
| | qo‘llanmalari, ta’limiy o‘yinlar, tarqatma materiallardan foydalanish nazarda tutilgan.<br><br>**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>**Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari:**<br>1. “Mustaqillik — g’urur va mas’uliyat” O‘zbek tili imlo qoidalari.<br>2. Termiz – janub gavhari”. O‘zbek tili fonetikasi<br>3. “O‘zbek xalq maqollari”. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.<br>4. “Birinchi o‘qituvchim”. Tilning leksik qatlamlari.<br>5. Cho‘lponning “Go‘zal” she’ri. Atamalar va ularning vujudga kelishi<br>6. Yaxshi nom qoldirmoq saodati. Ijtimoiy- siyosiy leksika.<br>7. Kompyuterlashtirish va kelajak kasblari. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi.<br>8. Muomala madaniyati – inson ko‘rki.. O‘zbek tilida sinonim<br>9. Turizmni rivojlantirish ellarni yaqinlashtiradi”. Til va terminologiya<br>10. “O‘zbek oshxonasi – millat durdonasi”. Erkin va turg‘un birikmalar<br>11. “Baxtimiz qomusi”. Frazeologik birliklarning turlari va ularning uslubiy xususiyatlari<br>12. “Teatr – hayot akademiyasi”. Nutq uslublari va uning xususiyatlari<br>13. “Xalq tabobati el salomatligi yo‘lida”. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari<br>14. “Internet hayotimizda”. Og‘zaki va yozma uslub va uning xususiyatlari<br>15. “O‘zbekiston va jahon”. Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari<br>16. “Adiblar xiyobonida”. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.<br>17. “Mag‘zi to‘q go‘zallik”. Badiiy tasvir vositalari.<br>18. “She’r-tuyg‘ular farzandi”. Fikrni badiiy uslubda ifodalash<br>19. Kashfiyotlar olamida. Reportaj tayyorlash<br>20. Mahalla – tarbiya beshigi. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari<br>21. O‘zbek san’ati ustalari. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar<br>22. Qahramonlar unutilmaydi. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari<br>23. “Men sevgan asar”. Matn va uning ko‘rinishlari<br>24. Nutq odobi”. Dialogik matn<br>25. “Ilm sari yo‘l”. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang<br>26. Ma’lumot-axborot hujjatlari<br>27. Ishonchnoma, tilxat, tushuntirish xati matni ustida ishlash.<br>28. Dalolatnoma va ma’lumotnoma matni ustida ishlash.<br>29. Majlis bayoni. Hisobot tayyorlash<br>30. Xizmat yozishmalari. Xatlar. Xizmat xatlarining matnlarini tuzish |
| **3.** | **V.Ta’lim natijalari / kasbiy kompetensiyalar**<br>**Talaba:**<br>• O‘zbek tilini puxta o‘rganish jarayonini tezlashtirish, bilim va ko‘nikmalarini |

| | |
|---|---|
| | yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish **ilmiy-nazariy ma’lumotga ega** ***bo‘lishi*** **(bilim);**<br>• nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo‘lgan nutqiy mavzularda o‘zbek tilida mustaqil so‘zlay olishlari va yozishlari ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi*** **(ko‘nikma)**;<br>• o‘zbek xalqining tarixi, an’analari, urf – odatlari, mustaqil davlatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti to‘g‘risidagi turli nutqiy vaziyatlarda o‘zbekcha erkin muloqotga kirisha olishlari malakalariga ega bo‘lish( malaka),<br>• o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi va ixtisoslik atamalaridan o‘rinli foydalanish, ular yordamida o‘z fikr – mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo‘lishlari orqali o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta’minlash **kompetensiyasiga** ***ega bo‘lishi kerak*****(kompetensiya)** |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• individual loyihalar;<br>• interaktiv tarzda ishlash;<br>• taqdimot nutqi tayyorlash;<br>• interfaol va innovatsion metodlar, ilg‘or texnologiyalar, matnni kengaytirish va qisqartirish, adabiy til me’yorlari asosida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi qiziqarli o‘yinlar, nostandart topshiriqlar ;<br>• auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar (noan’anaviy dars shakllari: sayohat-dars, hayotiy lavhali dars);<br>• audio-vizual materiallar bilan ishlash;<br>• hujjat matnini yozishga va mustaqil tuzishga oid zamonaviy texnologiyalari;<br>• talabalarning davlat tilida ish yuritish ko‘nikmalarini amalda qo‘llashni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>fanga oid o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay bilish; o‘rganilgan rasmiy matn yaratish mavzulari doirasida aniq, ixcham fikrlash; rasmiy uslubning boshqa uslublardan farqli tomonlariga izoh berish, davlat tilida ish yuritish hujjatlari matnini mustaqil ravishda og‘zaki va yozma shaklda tuzish va yozish, rasmiy matn ustida ishlay olish; hujjat turlari matniga xos qoliplashgan birliklarni o‘rinli qo‘llay bilish; davlat tilida ish yuritish hujjatlarining o‘ziga xos jihatlari aniq bayon qilish, davlat tilida ish yuritish mohiyatini tushunish, o‘rganilgan hujjatlarni to‘g‘ri yoza bilish; joriy, oraliq nazorat shakllari bo‘yicha, mustaqil ta’lim bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish. |

| | |
|---|---|
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Asilova G. Oʻzbek tili. Darslik. – T.: “Yosh kuch”, 2018. – 436 b.<br>2. Abduraxmonova M., Fattoxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. Oʻzbek tili (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: “Mumtoz soʻz”, 2019.<br>3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Poʻlatova X. Oʻzbek tili. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2012.– 288 b. Darslik.<br>4. Yuldasheva Sh., Kabulova D. Sobirova M. Oʻzbek tili. – Nukus: “Bilim”, 2013.– 156 b. Oʻquv qoʻllanma.<br><br>**Qoʻshimcha adabiyotlar**<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq, – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.<br>6. “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 20 октябрда qabul qilingan ПФ-6084-сон farmoni<br>7. “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги 2017 йил 13 сентябрда qabul qilingan ПҚ-3271-сон qarori.<br>8. Adilova S., Narimova G., Quvandiqova I., Mirazizov A., Yunusova Sh. Oʻzbek tili. (OTM rusiyzabon guruhlari uchun). -T.: TDPU, 2016.<br>9. Lafasov U. Oʻzbek tili. – Toshkent: ToshDSHI, 2019.– 532 b. Oʻquv qoʻllanma.<br>10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-5 jild. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005 – 2008.<br>11. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш (амалий қўлланма). –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.–456 б.<br>12. Мирқосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). –Тошкент: ТДТУ, 2004. – 101 б.<br>13. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. – Toshkent: |

| | |
|---|---|
| | "O'qituvchi", 2019<br>**Axborot manbalari**<br>1. https://my.gov.uz/ – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.<br>2. https://www.lex.uz/ –O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. https://lebrary.ziyonet.uz/ – Ta'limportali.<br>4. https://www.twirpx.com/file/1162153/Uchebnik "Uzbekskiyyazыkdlyastran SNG"/ G.X. Bakieva, B.X. Karaeva, E.N. Korshunova, I.A. Kraeva, D.M. Teshabaeva, G.M. Frolova. -Moskva: Rema, 2012. -330 s.<br>5. https://play.google.com/store/apps/details?id=com.freelearning.phrasebookruuz&hl=ruUzbekskiyrazgovornik. |
| **7.** | Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashning 2024-yil 27-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>B.Raxmanov - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Sh.Bobomurodova – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi<br>N.Amonturdiyev – Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |